

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARINING OILA BILAN HAMKORLIK
ISHLARINI INNOVASION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH**

Rahimova Moxinora Xoshimjanovna

*Andijon davlat pedagogika instituti
boshlanchi ta'lim metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikda faoliyat yuritish asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu amaliyotni olib borishning ayrim innovatsion ko'rinishlari hamda samaradorlik ko'rsatkichlari muhokama etiladi.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, oila, innovatsiya, mahalla, tarbiya, metod.*

KIRISH

Inson avvalo oila bag'rida unib-o'sadi, shaxs sifatida shakllanadi. Oiladagi ta'lim-tarbiya, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar keyinchalik odamlar orasida — mahalla-ko'yda, ta'lim muassasalarida sayqal topadi. Shunday ekan, vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini, jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tiborini belgilovchi barkamol avlodni voyaga yetkazishdek ulug' vazifani oila-mahalla-ta'lim tashkilot hamkorligisiz hal etib bo'lmaydi desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Har tomonlama barkamol, komil insonni tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda ro'y berayotgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar yoshlar ongiga ta'sir qilmasdan qolmaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bolaning qanday inson bo'lib voyaga yetishi ota-onada tarbiyasi va atrof – muhit ta'siriga bog'liq. Bola tarbiyasida ularning yosh jihatiga, ruhiyat va tushunchasiga, fe'l-atvoriga alohida ahamiyat berish zarurdir. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash ishi birinchi navbatda oiladan boshlanadi. Bu borada barkamol avlodni tarbiyalashda ota-onada, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ushbu hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish o'smirlar orasida qarovsizlik, tartibbuzarlik, jinoyatchilik va shunga o'xshash maishiy buzuqliklar bilan shug'ullanishning oldini olishda muhim tarbiya vositasidir. Yurtboshimiz o'z nutqlarida "Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir" deb ta'kidlagan. Ushbu talab asosida mamlakatimizda nasli toza, jismonan sog'lom, bilim va tafakkuri o'tkir, ma'naviyatlari, aniq kasbga va mutaxassislikka ega, g'oyaviy sobitqadam farzandlar, ya'ni barkamol avlod modeli yaratildi va uni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan.

Hamkorlikda bolalarni ta’lim-tarbiyasida maktabgacha ta’lim, bolalarni maktabga tayyorlash muammolari bo‘yicha A.Sulaymonov, L.Mo‘minova, F.Qodirova, M.Rasulova, B.R.Jo‘raeva, G.Amirova, D.G.Boboeva, Sh.Shodmonova, M.Asqarxo‘jaeva, K.S.Shodieva, F.B.Valixo‘jaeva, X.K.Mamedov, X.A.Meliev va boshqalar. MDH olimlaridan E.A.Naneyshvili, N.A.Vasileva, N.Nyukomb, N.N.Jirnova, V.V.Davidov, N.A.Menginskaya, Ye.A.Avilova, xorijlik olimlardan A.Kirsten, K.Roksana, Keyt Berk Uolshlar o‘zlarining tavsiyalarini ishlab chiqqanlar [1-6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Oilani ta’limga jalg qilish maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishga qaratilgan har qanday dasturning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Oilaning boshqa a’zolari ham, masalan, ota-onasi, buvisi, aka-opalari jalg qilingan holda ta’lim ishlari olib borilsa, bolalar o‘qishga, ta’lim muassasasiga nisbatan yanada ijobjiy munosabatda bo‘ladilar va yaxshi o‘zlashtirishni namoyon qildilar.

Oilalar ham o‘z navbatida ta’lim muassasasida ro‘y berayotgan voqealardan xabardor bo‘lishlari hamda o‘z bolalarining ta’lim jarayonida faol ishtirokchi bo‘lishlari kerak.

Oilalar ta’lim jarayoniga faol jalg qilinsalar, ular farzandlari nimalarga qodir ekanidan xabardor bo‘ladidir, boladan nima kutishni tushunadilar, bolaning ta’lim olishiga qanday yordam ko‘rsatishni anglaydilar.

Xuddi shuningdek, pedagoglar ham bolaga o‘z imkoniyatlaridan unumli foydalanish, belgilagan maqsadlariga yetishishida yordam berish uchun bolaning oilaviy ahvolini bilishlari muhim. Maktabgacha yoshdagi bolani maktab ta’limiga tayyorlashda eng ma’qul muhit maktabgacha ta’lim muassasasi hisoblanadi. Chunki bu yerda bolalar ta’lim –tarbiyasiga zaruriy shart- sharoitlar yaratilgan: mutaxassis ishlaydi, bolalar kun tartibiga rioya qiladilar, metodik va amaliy qo‘llanmalar bola soniga va yoshiga mos bo‘ladi. Bolaning o‘zlashtirishi tashxis qilinadi. Ta’lim-tarbiya davlat me’yoriy hujjatlari asosida olib boriladi. Davlat talablari va dasturga amal qilinadi. Bola maktab ta’limiga tayyorlanadi. Demak: bolaning maktab ta’limiga tayyorligini ta’minlashda uning maktabgacha ta’lim muassasasiga qamralganligi muhim ahamiyatga ega.

Yosh avlod tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan, oilada – ota-onalar, mahallada – qo‘ni-qo‘shni va keng jamoatchilik, ta’lim tashkilotda – o‘qituvchi va murabbiylar kelgusi avlod barkamolligi hamda o‘g‘il-qizlarimizning ulug‘ ajodolarimizga xos oqil bo‘lishlari uchun mas’uldirlar. Tarbiya ishlarini hamkorlikda olib borilishi doimo ijobjiy natija bergen. Ushbu ishlarni tizimli olib borish va muvofiqlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj bugungi ta’lim- tarbiya jarayoniga mas’ul vazirlik, manfaatdor tashkilot va idoralar oldiga dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Ota-onalar bilan hamkorlik bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun maktabgacha ta’lim tashkilot ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikning quyidagi shakllarini tashkil qilishi mumkin [4]:

- ota-onalarning maktabgacha ta’lim tashkilot borasidagi fikrlarini hisobga olish saytini ishga tushirish;

- ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berishning raqamli ko`rinishlarini ishlab chiqish;

- ota-onalarni o‘quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalg etish;

- ota-onalarning muassasa hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda onlayn platforma asosida ularni shakllantirib borish.

Ta’lim-tarbiya jarayonida oila, mahalla va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasida uzlucksiz munosabatlar bo‘lishi zarur. Bu ishlar tizimlilik tamoyili asosida oiladan maktabgacha ta’lim tashkilotiga, maktabgacha ta’lim tashkilotidan mahallaga bosqichma-bosqich davom etib boradi. Lekin, shuni ta’kidlash lozimki, maktabgacha ta’lim tashkiloti qanchalik ahamiyatli bo‘lmisin, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tarbiya masalasida oila birinchi o‘rinda turadi. Bola uyda o‘rganganini maktabgacha ta’lim tashkilotida davom ettiradi, maktabgacha ta’lim tashkilotida oiladagi tarbiya ma’lum darajada korreksiya qilinadi. Biz tajriba ishimiz davomida bolalarning ota-onalari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish uchun quyidagi faoliyatlardan foydalandik:

ota-onalarda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda maktabgacha ta’lim tashkiloti va mahalla xodimlari bilan hamkorlik qilishga intilishini o‘quvlar asosida shakllantirdik;

-ota-onalarning pedagogik kompetentligini oshirish maqsadida ota-onalarga uyda bola bilan mashg‘ulot o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan metodik usullarni o‘rgatdik;

ota-onalarga bola shaxsini rivojlantirish uchun xizmat qiladigan maxsus tarbiya usullarini o‘rgatdik. Oilalarni hamkorlikdagi ishga jalg etish bolalarga ham, ota-onalarga ham, maktabgacha ta’lim tashkilotiga ham foyda keltirdi. Muloqot, o‘zaro hurmat, bola manfaatlarining muhimligini e’tirof etish samarali hamkorlikka asos bo‘lib xizmat qildi. Samarali hamkorlik shakllantirilishi uchun pedagoglar va ota-onalar bilan yangi ko‘nikma va bilimlarni rivojlantirdik. Pedagoglar va ota-onalar, mahalla vakillarining birgalikdagi faoliyati va o‘zaro muloqoti mexanizmlarning mavjudligi har bir oilaning manfaatlari va xohish-istiklariga mos keladigan hamkorlik shakllarni ishlab chiqishga zamin yaratildi. Tajribamiz davomida oilaning va pedagogik jamoaning mo‘ljallari yoki maqsadlari har doim ham mos kelavermasligini ko‘rsatdi. Shuning uchun ham bola qabul qilinishi bilan maktabga tayyorlash va maktabgacha ta’limnmng o‘quv dasturini ota-onalar bilan muhokama etish va bu boradagi muloqotni yil davomida olib borish maqsadga muvofiqdir. Tajribamiz davomida o‘quv yilining boshidayoq hamkorlik masalasini muhokama etishimiz kelgusidagi muloqotni yo‘lga qo‘yishga yordam berdi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, bolalarni maktabga tayyorlashda har bir pedagog barcha faoliyatlarni ota-onalar bilan hamkorlikda innovatsion tarzda tashkil etsa bolalar juda

katta yutuqlarni qo‘lga kiritadilar, tezda yaxshi natijalarga erishadilar. Shu sababli ham ota-onalar bilan hamkorlikning samarali yo‘llarini tinimsiz izlash va qo‘llash lozim. Mazkur maqolada oila, mahalla, maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorlikda bola ta’lim-tarbiyasini uzviyligini ta’minalash muammosiga qaraldi va yuqorida qayd etilganidek shubhasiz dolzarb muammodir.

Agarda yuqorida ota-onalarga berilgan maslahatlarga amal qilinsa, tashkilotlar o‘rtasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilsa, yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarning ta’lim- tarbiyasi, bilim-saviyasi kelajagi buyuk davlatni barpo etishga zamin bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. L.R.Mirjalolova Tanlov fani moduli T.: Iste’dod, 2018. – 223 b
2. M.Usmonova. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar Ta’lim texnologiyalari. 2016 yil. 4-son.
3. M.Usmonova .Pedagogik jarayon loyixasi – mashg‘ulotlar samaradorligini ta’minalash vositasi sifatida Boshlang‘ich ta’lim va jismoniy madaniyat yo‘nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va yechimlar Xalqaro ilmiy konferentsiya. Toshkent. 25 may, 2017 yil
4. M.Hamidova va boshqalar. “ Maktabgacha yoshdagи bolalarning kamolotida yangicha yondashuv va uni targ‘ib qilishda jamoatchilik ishtiroki” . T.:”O‘qituvchi” 2014y,252 b
5. F.Qodirova va boshqalar.”Maktabgacha pedagogika”-T.:”Ma’naviyat” 2013 yil,160 b
6. “Bolaga yo‘naltirilgan ta’lim dasturini tashkil etish” T.:”Kvinta Print” nashri 2012y, 263b